

ISLOM MOLIYA BOZORI VA UNING RAQAMLI TARAQQIYOTINI TA'MINLASH

Nilufar Bobonazarova

*O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi "Raqamli bank ishi"
kafedrasi o'qituvchisi*

Tarixdagi barcha inqirozlar iqtisodiyot hamda moliya sektori uchun haqiqiy sinov vazifasini bajarib, bu sohalarning rivojlanishi uchun sezilarli burilishlarga asos yaratib kelgan. 2020-yilgi pandemiyadan keyin, boshqa sohalar singari islom moliyasi sanoati ham o'ziga xos sinovdan yana bir marta o'tishiga to'g'ri keldi va o'zining mustahkamligini yana bir marta isbotladi.

Islom banklari aktivlari hajmi jihatidan bugungi kunda islom moliyasining asosiy sektoriga aylanib ulgurdi va 2022-yilda jami islom moliyasi aktivlari 4 trillion dollarga yetgan bo'lsa, uning taxminan 70 foizi (2.8 trillion dollar) islom banklari hissasiga to'g'ri keldi. Pandemiya davrida islom banklari ehtimolli zararlar uchun ajratgan zahiralarning asosiy qismi foydalanilmaganligi va taqsimlanmagan foydani oshishiga xizmat qilgani quvonarli holat bo'ldi.

Sukuk (islomiy qimmatli qog'ozlar) esa, 2021-yilda jami 713 milliard dollarlik hajmi (14 foizlik o'sish) bilan islom moliyasi bozorining 2-yirik segmenti bo'ldi. Uzoq muddatli sukuk (5 yil va undan ortiq muddatga) amaliyotlari pandemiyadan keyin yanada rivojlandi. Bugungi kunda Saudiya Arabistoni, Indoneziya va Malayziya ESG (environmental, social and governance – atrof-muhit, jamiyat va boshqaruv uchun qulaylik mezonlari) sukuklari va ESG investitsiyalari bo'yicha lider pozitsiyasida turishibdi. Bu ko'rsatkich keyingi yillarda fors ko'rfazi GCC (Gulf Cooperation Council - Fors ko'rfazi davlatlarining mintaqaviy, hukumatlararo, siyosiy va iqtisodiy uyushmasi, Baxrayn, Quvayt, Oman, Qatar, Saudiya Arabistoni va Birlashgan arab amirliklarini o'z ichiga oladi) davlatlaridan yashil iqtisodiyotga o'tayotgan mamlakatlarni moliyalashtirish uchun ESG investitsiyalariga talab oshishi hisobiga yanada o'sishi kutilmoqda.

Islomiy fondlar esa kattaligi jihatidan islom moliya bozorida 3-o'rinni egallab turibdi va 2021-yilda ularning jami aktivlari hajmi 34 foizlik o'sish bilan 238 milliard dollarni tashkil qildi. Islomiy fondlar - banklar va sukuklarga nisbatan kamroq rivojlangan bo'lib, global islomiy fondlarning asosiy 81 foiz ulushi 3 ta davlat, ya'ni Eron, Saudiya Arabistoni va Malayziyaga to'g'ri keladi.

Boshqa islomiy moliya institutlari (fintex bilan shug'ullanuvchi kompaniyalar, investitsion firmalar, moliyaviy kompaniyalar, lizing va mikromoliya tashkilotlari,



shuningdek, broker va treyderlar) ning aktivlari 5 foizga – 169 milliard dollarga oshishiga erishilgan. Yuqori o'sish sur'atlari Qozog'iston (44 foiz), Misr (38 foiz) va Maldiv orollari (31 foiz) da qayd etilgan. Bu sektorda asosiy yo'nalish moliyaviy texnologiyalarda (fintex) bo'lib, Saudiya arabistoni 2025-yilga kelib, o'zining fintex firmalari sonini 82 tadan 230 tagacha yetkazishni rejalashtirmoqda.

Takaful-islom moliyasi sanoatining eng kichik sektori bo'lib, 2021-yilda aktivlari 73 milliardni tashkil etgan.

Islom moliyasi keyingi yillarda faqat fenomen sifatida keng yoyilibgina qolmasdan, amaliyotga tatbiq etilishi nuqtai nazaridan hamda yangi raqamli xizmatlardan foydalanayotganligi sababli ham o'z ko'lamini kengaytirmoqda. Islomiy moliya xizmatlarini taklif etayotgan institutlar nafaqat islom diniga e'tiqod qiladigan davlatlarda, balki musulmon bo'lmagan davlatlarda ham muvaffaqiyatli faoliyat yuritib kelmoqdalar va bu bilan an'anaviy moliya xizmatlari bilan raqobat qila olmoqdalar. Islom moliyasi yildan yilga yoyilib borishi bilan birga, xizmat turlarini ham ko'paytirib kelmoqda va xizmatlar takliflari egalari musulmon bo'lmagan bozorlarga ham aktiv ravishda kirib bormoqdalar.

Musulmon bo'lmagan bozorga kirish Fors ko'rfazi davlatlari birlashmasi (GCC) tomonidan an'anaviy davlatlar aholisining musulmon bo'lgan qismiga ularning mulklarini sha'riy boshqarish bo'yicha taqdim etgan takliflari bilan boshlangan va musulmon bo'lmaganlar orasida ham keng yoyilgan. Bunaqa miqyosdagi impuls esa islom moliyasining shunchaki ma'lum aholi qatlamiga tegishli emasligidan, ya'ni islom moliyasining (shar'iy boshqa barcha narsalar qatori) ESG mezonlariga mos kelishi, ya'ni atrof-muhit, jamiyat va boshqaruv uchun qulayligi va ommabopligi bilan izohlanadi.

"Malaysia's Maybank Group"ning islom banki bo'yicha yo'nalishi bo'lgan "Maybank Islamic Berhad"ning o'tkazgan so'rovnomasiga asosan, islomiy moliyalashtirish bilan shug'ullanadigan mutaxassislar islom moliyasida oxirgi 10-15 foizlik o'sish sur'ati asosan ESG hamda barqarorlik hisobiga amalga oshgan deb hisoblaydilar. Respondentlarning 58 foizi esa keyingi 5 yilda islom moliyasi o'sish ko'rsatkichlari 15 foizdan yuqori bo'ladi, deb hisoblamodalar.

Birlashgan Qirollikning "Bank of England and the Middle East" islom banki erishgan yutuqlar bugungi kunda Fransiya va Germaniyada musulmonlar soni Britaniyaga nisbatan ko'proq bo'lishiga qaramasdan, islom moliyasining aynan Britaniyada ko'proq yoyilganligining sababi deb ko'rsatilmoqda. Britaniyada bundan tashqari HSBC Amanah, Lloyds Bank Islamic Bank Account va Standard Chartered Banklar ham an'anaviy banklar sifatidagi asosiy faoliyatidan tashqari, islomiy filiallariga ham ega. Bugungi kunda Britaniya o'zining yetarli darajada mukammal



solliq tizimi va shariat qoidalariga moslashtirilgan mahsulotlar taqdim eta olganligi hisobiga yer yuzining g'arbiy yarim sharida ancha rivojlangan islomiy moliya bozoriga egalik qilayotganligini ta'kidlaydi. Bunga esa Britaniya tomonidan 2000-yillarda solliq qonunchiligiga shariat qonunlari asosida ishlaydigan tashkilotlarga, ularning foizsiz ishlashini ham hisobga olgan holda yengilliklar yaratilishi, kiritilgan o'zgarishlar - qo'shimcha solliqlar, tamg'ali yig'implarning olib tashlanishi sabab bo'lgan. HSBC kabi banklarning jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish bilan bog'liq tarixi, bu kabi banklarning islomiy darchalari faoliyatini islomiy nuqtai nazardan o'rganish kerakligini bildiradi .

Buyuk Britaniyadagi rivojlanish bilan proporsional ravishda va kattaroq miqyosda yaqin sharq va janubi sharqiy Osiyodagi musulmon davlatlarda ham islom moliyasi, o'zining yangi raqamli xizmatlari va mahsulotlari bilan rivojlanmoqda. Bu hududlardagi islom banklari ham keng turdagi mahsulot va xizmatlarini (shu jumladan, onlayn xizmatlar) taklif etmoqdalar va an'anaviy banklar bilan teng raqobatga kirishmoqdalar. Ularga misol qilib Birlashgan arab amirliklaridagi "Abu Dhabi banki" hamda Malayziyaning "Maybank"ini misol qilib olishimiz mumkin.

Islomiy moliyalashtirish bilan parallel ravishda bugungi kunda dunyoda raqamlashtirish jarayonlari (ayniqsa pandemiyadan keyin) ham jadal rivojlanmoqda. Raqamli inqilob, raqamlashtirish yoki raqamli transformatsiya atamalari so'nggi o'n yillikda barcha sohalarida ko'p qo'llanilmoqda va uning qamrovi kengligi sababli yagona ta'rifga ega emas. Solis, Li, va Szymanski (2014) larni fikricha: "Raqamlashtirish bu mijoz bilan ishlash siklining har bir bosqichida raqamli mijozlarni samaraliroq jalb etish maqsadida yangi texnologiyalar va biznes-modellarga qilingan investitsiyalardir". Raqamlashuv jarayonini "aqlli sanoat" (Yaponiya), "Ishlab chiqarish interneti" (Shimoliy amerika), "Sanoat 4.0" (Germaniya) deya turlicha ta'riflash mumkin .

Sun'iy intellektning vujudga kelishi va so'nggi vaqtlarda (ayniqsa pandemiyadan keyin) rivojlanishi to'rtinchi sanoat inqilobi sohalararo olamida tadqiqotlar olib borish uchun yangi asoslar yaratib berdi. Oxirgi o'n yillikda jadallashgan texnologik rivojlanish moliyaviy xizmatlar taqdim etish jarayonlariga qay darajada yordam berishi, xususan, islom moliyasi sanoatida fintex, blokcheyn, RegTech, buyumlar interneti (Internet of things IoT) ning qay darajada ishlashini o'rganish bugungi kunda mutaxassislar oldida turgan muhim masalalardan bo'lib qolmoqda.

Islom moliyasida sun'iy intellekt bu islomiy moliya xizmatlari taqdim etish jarayoni avtomatlashuvi bo'lib, bunda bizga ma'lum va yangi moliyaviy xizmatlar oxirgi texnologik yutuqlardan foydalangan holda amalga oshiriladi. Sun'iy intellekt




boshqa sohalar kabi islom moliyasida ham raqamli texnologiyalarning rivojlanishi hisobiga moliyaviy xizmatlar taqdim etish jarayonini avtomatlashtirdi va bir necha barobar samaraliroq ishlashini ta'minlab berdi. Shunday qilib, so'nggi paytlarda bu borada bir necha onlayn islomiy banking, islomiy sug'urta (takaful), xayriya sektori, elektron vaqf (endowment), islomiy yig'imlar (e-Zakat) va boshqa musulmon bo'lgan hamda bo'lmagan davlatlardagi moliyaviy institutlarda yangi xizmatlar paydo bo'ldi.

Blokcheyn texnologiyasi va Fintexning rivojlanishi islom moliyasi ko'lamini ham yanada kengaytirmoqda. 2022-yil fevral oyida Avstraliya markazlashmagan MRHB DeFi moliyaviy platformasining Sahal Wallet deb nomlangan dunyoning birinchi halol va axloqiy kripto hamyoni deya ta'kidlanayotgan tizimni ishga tushirdi. MRHB belgisi Binance smart chain tarmog'ining markazlashmagan yetakchi birjalaridan PancakeSwap, DEX va CEX da listing qilinadi. Islomiy bo'lmagan shimoliy Yevropa va MDH davlatlari kripto ekotizimidagi boshqa barcha 7000 dan ortiq foydalanuvchilari bor loyihalar axloqiy uyushmalarni qamrab ololmaydi. Halol MRHB bugungi kunda kripto ekotizimiga islom moliyasidan 3 trillion dollar quyilib kelishini ta'minlamoqda.

MRHB Islom moliyasining faqat e'tiqod bilan bog'liq bo'lgan jihatlarga urg'u beradigan ekotizim emas, balki axloqiy ekotizim sifatida o'sishga erishdi va MRHB yo'l kartasi 10 mahsulotdan iborat (shundan 2 tasi musulmon bo'lgan bozorga tegishli). Bular Souq Nft – blokchainga asoslangan o'yin platformasida savdo qilish imkonini hamda kvadratik moliyalashtirish modellari yordamida ijtimoiy tashabbuslarni moliyalashtirish imkonini beradi. Kvadratik moliyalashtirish optimal moliyalashtirish (hozirda keng yoyilayotgan ijtimoiy hayriya tashabbuslari) uchun matematikadan foydalanadi. Boshqa mahsulotlar esa an'anaviy mahsulotlar bo'lib, portfel menejmentida risklarni kamaytirishda sun'iy intellektdan foydalanishga asoslanadi.

Yuqoridagilar asosida xulosa qilish mumkinki, islom moliyasi bugungi kunda jadal rivojlanishining asosiy sabablari islomiy moliyalashtirishning ESG mezonlariga javob berishi, musulmon va musulmon bo'lmagan mijozlar talablariga birdek javob berayotganligi hamda islomiy moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchilar va bunday moliyaviy xizmatlardan foydalanuvchilar harakatlari natijasidir. Raqamli moliya xizmatlari hamda kriptoalyutalarning paydo bo'lishi jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishni osonlashtirishini hisobga olsak, bugungi kunda islomiy moliya xizmatlari taklifi egalari zimmasidagi asosiy masala zamonga mos raqamli xizmatlar va mahsulotlar yaratish va shu bilan bir qatorda sha'riyat talablariga ham javob bera olishini ta'minlashdir. Iqtisodiyotning raqamlashuvi barcha turdagi xizmatlar samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, ularning tezligi





va maxfiylikini ham oshiradi, shu nuqtai nazardan, iqtisodiyotni raqamlashtirishni “Avtopilot” rejimga o‘tish bilan tenglashtirish mumkin. Bu rejimga o‘tish uchun esa, iqtisodiyotning barcha tarmoqlari faoliyati siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa normativlarga javob berishini ta’minlash kerak bo‘ladi.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. Parminder Jeet Singh “Digital Industrialisation in Developing Countries” a Review of the Business and Policy Landscape, <https://unctad.org/>
2. Marc L.Ross (2022) HSBC’s money laundering scandal
3. ICD – Refinitiv Islamic Finance Development Report 2022

